



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2024 - yil 19 - fevral

46-7-0-Q/24

Samarqand viloyati hokimligi

## **Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma‘muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1326-son qaroriga muvofiq viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasining 2024-yil 8-yanvardagi (4-son) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 11-yanvardagi (02/01-38/52-son) va viloyat Soliq boshqarmasining 2024-yil 24-yanvardagi (20/5-607-son) xulosalari hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari kotibiyat mudiri R.Maxqulovning 2024-yil 23-yanvardagi (45/01-30-son) bildirgisiga asoslanib;

### **QAROR QILAMAN:**

#### **1. Quyidagilar:**

Bozorlar va savdo komplekslari ma‘muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar miqdorlari 1-ilovaga;

Bozorlar va savdo komplekslarining ma‘muriyati tomonidan bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari 2-ilovaga;

Bozor va savdo komplekslarining ma‘muriyati tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish uchun to‘lovlarning miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Soliq boshqarmasi (S.Eshmatov), viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (A.Rajabov)ga:

viloyatdagi Bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘liq undirilishini;

ushbu qarorning 1-bandida tasdiqlangan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati miqdorlarini viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslari, sotuvchi va xaridorlar e‘tiboriga yetkazilishini, bu haqdagi ma‘lumotlarni barcha ko‘rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini;

ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati uchun to‘lovlarning holati bo‘yicha monitoring kuzatuvini yuritish va natijalari yuzasidan viloyat hokimligiga aniq takliflar kiritib borilishini;

ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning yangi miqdorlarini to'g'ri qo'llanilishi hamda to'liq undirilishi va bozorlar daromadlarining belgilangan qismini mahalliy byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlash topshirilsin.

3. Viloyat hokimining 2023-yil 23-fevraldagi "Viloyatdagi bozor va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini belgilash to'g'risida" 61-7-0-Q/23-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati matbuot kotibi (M.Mirzayev), Viloyat hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" (N.Norbekov) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Abilov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Viloyat hokimi**



**E.Turdimov**

Samarqand viloyat hokimining  
2024-yil 19-fevraldagi  
46-7-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir  
martalik yig'imlar miqdorlari**

(so'm hisobida)

T/R	Mahsulot turi	O'lchov birligi	Olinadigan to'lovlar		
			Samarqand va Kattaqo'rg'on shahri, Urgut va Samarqand tuman bozorlarida	Pastdarg'om, Toyloq, Bulung'ur, Jomboy, Oqdaryo Narpay tuman bozorlarida	Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida
1.	<b>Mahsulotlarni savdo o'rinlarida sotish:</b>				
1.1.	Mevalar: Ho'l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo'ri, gilos, ko'k va qizil sulton, o'rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k.	1 o'rin/kunga	10000	8000	7000
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi, va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho'l mevalar.	1 o'rin/kunga	20000	12000	7000
	Quruq mevalar, yong'oqlar: yong'oq, yer-yong'oq, bodom, pistalar, sho'rdanak va h.k. turshak, bargak, mayiz,	1 o'rin/kunga	20000	12000	9000
1.2.	Sabzavotlar: piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg'om, bulg'or qalampiri, baqlajon, patisson h.k. hamda pishirilgan jo'xori. kartoshka,	1 o'rin/kunga	7000	7000	5000
	a) pomidor, bodring (yozgi mavsumda)	1 o'rin/kunga	7000	6000	5000
	b) pomidor, bodring (qishgi mavsumda)	1 o'rin/kunga	13000	10000	9000
1.3.	Poliz mahsulotlari: handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	15000	9000	8000
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug'doy, suli, arpa va h.k.	1 o'rin/kunga	10000	9000	7000
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, no'xat va h.k.	1 o'rin/kunga	9000	8000	6000
1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog'i, suzma va h.k.	1 o'rin/kunga	8000	7000	5000
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h.k.	1 o'rin/kunga	9000	8000	6000

1.8.	Ziravor va dorivorlar: (zira, murch, qalampir va h.k.) hamda asal	1 o'rin/kunga	8000	7000	5000
1.9.	Ko'katlar (shu jumladan, issiqxonada yetishtirilganlar)	1 o'rin/kunga	8000	6000	4000
1.10.	Tuxum	1 o'rin/kunga	8000	6000	6000
1.11.	Gullar va ko'chatlar (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	8000	8000	6000
1.12.	Non mahsulotlari (obi non, patir va h.k.)	1 o'rin/kunga	8000	7000	5000
1.13.	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari	1 o'rin/kunga	8000	7000	5000
1.14.	Sanoat yo'li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari, salqin ichimliklar	1 o'rin/kunga	16000	13000	10000
1.15.	Milliy taomlar	1 o'rin/kunga	15000	12000	10000
1.16.	Polietilen va qog'oz paketlar, savatlar va posilka qutilari	1 o'rin/kunga	8000	6000	5000
1.17.	Supurgi	1 o'rin/kunga	7000	6000	6000
1.18.	Tirik baliq	1 o'rin/kunga	18000	13000	11000
1.19.	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari: (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	9000	7000	5000
2.	Go'sht mahsulotlari:				
2.1.	mol, qo'y, cho'chka va boshqa hayvonlar go'shtlari, dumba, jigar	1 o'rin/kunga	34000	29000	24000
2.2.	parranda go'shti, til, kalla-pocha va h.klar alohida sotilganda	1 o'rin/kunga	19000	15000	13000
2.3.	Tayyor pishgan go'shtli maxsulotlar: (qazi, til, ruletlar, kolbasalar va h.k.)	1 o'rin/kunga	23000	20000	18000
3.	Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:				
	yengil avtomashinalardan	1 mashina	23000	21000	18000
	yuk avtomashinalardan	1 mashina	32000	29000	23000
	tirkama, yarim tirkama yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan	1 mashina	21000	17000	15000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	12000	10000	9000
4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo'xori poyasi va h.k.	1 mashina	12000	9000	8000

5.	Tayyor ustki kiyimlar, ichki kiyimlar, o'rin-to'shak jihozlari, gazlamalar, turli xildagi mato jildlar, payafzallar va boshqa sanoat mollari	1 joy uchun	14000	11000	9000
5.1.	Televizor, org-texnika, mebel jihozlari, gilam mahsulotlari va h.k . (6 kv.metr)	1 joy uchun	17000	14000	10000
6.	Ilgari foydalanishda bo'lgan buyumlarni sotish: uy ro'zg'or jihoz buyumlari va kiyim kechaklar	1 urin/kunga	7000	6000	5000
7.	<b>Avtotransport vositalarini sotish:</b>				
7.1.	<b>Yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar, shundan:</b>				
	GM-O'zbekiston (O'zDEU) va xorijda ishlab chiqarilgan yengil avtomashinalar	1 dona	50 000	x	x
	MDH (SNG) davlatlarida ishlab chiqarilgan avtomashinalar	1 dona	33 000	x	x
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko'taruvchi transport vositalari	1 dona	39 000	x	x
	motosikl, motoreller va mopedlar	1 dona	12 000	x	x
	velosipedlar	1 dona	8 000	6 000	6 000
7.2.	Ilgari foydalanishda bo'lgan ehtiyot qismlarni sotish: -avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o'rin/kunga	12 000	10 000	9 000
8.	<b>Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun:</b>				
8.1.	<b>Ot, toy, tuya</b>	1 bosh	30 000	30 000	30 000
	bo'taloq, eshak	1 bosh	12 000	12 000	12 000
8.2.	<b>Yirik shoxli qoramol :</b>				
	yirik shoxli qoramol (shu jumladan, sigir buzog'i bilan)	1 bosh	33 000	33 000	33 000
	buzoq	1 bosh	22 000	22 000	22 000
8.3.	<b>Mayda shohli qoramol:</b>				
	qo'y, echki (qo'y qo'zisi bilan, echki ulog'i bilan)	1 bosh	23 000	23 000	23 000
	qo'zi, uloq	1 bosh	17 000	17 000	17 000
8.4.	<b>Cho'chqalar, cho'chqa bolalari</b>	1 bosh	16 000	16 000	16 000
9.	<b>Uy parrandalari: kurka,tovuq, o'rdak, g'oz</b>	1 bosh	6 000	6 000	6 000
	tovuq, kurka, o'rdak, g'oz jo'jalari	10 bosh	6 000	6 000	6 000
10.	<b>Itlar va mushuklar</b>	1 o'rin/kunga	8 000	8 000	8 000
11.	<b>Manzarali qushlar va baliqlar</b>	1 o'rin/kunga	10 000	10 000	10 000
12.	<b>Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar</b>	1 o'rin/kunga	5 000	5 000	5 000

13.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda	1 o‘rin/kunga	7 000	7 000	7 000
-----	---	---------------	-------	-------	-------

Izoh:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste‘moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 1 - 1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq o‘rin uchun qo‘shimcha ravishda har bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy haqi undiriladi.
2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste‘moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.
3. Urgut, Qo‘shrabot, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on va Payariq tumanlaridagi dehqon bozorlarda katta tarozida tortishda har bir kg.uchun mayiz-500 so‘m (faqat Kattaqo‘rg‘on tumanidagi MChJ "TASMACHI M.A.T" dehqon bozori uchun 100,0 so‘m), no‘xat-400 so‘m deb, patta puli undirilsin.
4. Har bir ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lov tarkibiga qo‘shilgan qiymati solig‘i qo‘shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.

Samarqand viloyat hokimining  
2024-yil 19-fevraldagi  
46-7-0-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarning miqdorlari

(so'm hisobida)

T/R	Ko'rsatiladigan xizmatlar turi	O'lov birligi	Olinadigan to'lovlar		
			Samarqand va Kattaqo'rg'on shahri, Urgut tumani bozorlarida	Samarqand, Pastdarg'om, Toyloq, Bulung'ur, Jomboy, Oqdaryo Narpay tumani bozorlarida	Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida
Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./ oyiga	32 000	27 000	24 000	1.
Umumiy ovqatlanish	1 kv.m./ oyiga	32 000	27 000	24 000	
Maishiy xizmat ko'rsatish	1 kv.m./ oyiga	21 000	18 000	16 000	
Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k.)	1 kv.m./ oyiga	25 000	22 000	18 000	
<b>2.</b>	<b>Inventarlarni ijaraga berish:</b>				
<b>2.1.</b>	<b>Tosh-tarozilar uchun</b>	1 kunga	5 000	4 000	3 000
<b>2.2.</b>	<b>Katta yuk tortish tarozilari uchun</b>				
	150 kg.gacha	1 kunga	6 000	5 000	5 000
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunga	13 000	12 000	11 000
<b>2.3.</b>	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o'rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	3 000	3 000	3 000
<b>2.4.</b>	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	3 000	3 000	3 000
<b>2.5.</b>	Mahsulotlar uchun brezent berish	1 kunga	4 000	4 000	4 000
<b>2.6.</b>	Aravachalar uchun	1 kunga	6 000	5 000	5 000
<b>2.7.</b>	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv.m)	1 kunga	6 000	4 000	4 000
<b>3.</b>	<b>Ko'rsatiladigan xizmat turlari:</b>				
<b>3.1.</b>	<b>Qishloq xo'jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:</b>				
	sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	8 000	7 000	6 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun )	1 kunga	8 000	7 000	6 000
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o'rni hisobidan)	1 kunga	7 000	6 000	5 000
<b>3.2.</b>	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o'lchamdagi joy uchun)	1 kunga	7 000	6 000	5 000
<b>3.3.</b>	<b>Mahsulotlarni tarozida tortish:</b>				
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	5 000	4 000	4 000
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	6 000	5 000	4 000

Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovi:

Avtotarozilardan foydalanish:					
3.4.	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezlardan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	7 000	6 000	5 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	6 000	5 000	4 000
	Yuk ko'tarish quvvati 5 tonnagacha bo'lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	6 000	4 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	4 000	4 000	4 000
	yengil avtomashinalardan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	4 000	4 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	5 000	4 000	3 000
	tirkamali yengil avtomashinalardan:				
yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	5 000	4 000	
yuksiz	1 marta o'lchash	5 000	4 000	4 000	
3.5.	Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)	1 kunga	15 000	10 000	10 000
Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:					
3.6.	**yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	5 000	4 000	3 000
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	7 000	6 000	6 000
	"Samarqand Inovatsion avtomobillarni sotish" bozorida: a) bozor bo'lmagan kunlari hududda avtotransport vositasiga xizmat ko'rsatish uchun	1 kunga	7 000	x	x
3.7.	Transport vositalarining yuk o'rta va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi (qishloq xo'jalik mahsulotlarini tushirish uchun kirgan avtotransport vositalari bundan mustasno):				
	yengil avtomashinalar uchun	1 marta kirish	5 000	5 000	4 000
	yuk avtomashinalari uchun	1 marta kirish	7 000	6 000	5 000
3.8.	Poyabzal ta'mirlash xizmati	1 urin/kunga	4 000	4 000	4 000
3.9.	Hojatxona xizmatidan foydalanish	1 marta	4 000	3 000	2 000
3.10.	Telefondan foydalanish	1 marta	1 000	1 000	1 000
3.11.	Radiouzel orqali e'lon berish	3 marta takror	To'lov olinmaydi	To'lov olinmaydi	To'lov olinmaydi
3.12.	Boshqa ko'rsatiladigan har xil xizmatlar uchun	1 kunga	5 000	5 000	4 000
3.13.	Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yo'tilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer ostki va yer ustki kanalizatsiya lotoklari, tashqi yoritish armoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitariya-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)*	1 kv.m./ oyiga	22 000	18 000	16 000



*Izoh: Kattaqo'rg'on shahridagi dehqon va savdo komplekslarida umumiy foydalanadigan obyektlarni saqlash uchun ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar - 18 000 so'm deb olinsin;  
Tumanlardagi haftada bir(ikki) ish kuni bo'lgan bozor va savdo komplekslarida umumiy foydalanadigan obyektlarni saqlash uchun ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar - 11000 so'm deb olinsin.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PK-1326-sonli qaroriga muvofiq ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar ro'yxati va qiymati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko'rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib, bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan tegishli to'lovlar undirib olinadi.*

*\*\*Chelak dehqon bozoridagi yangi bozor avtoturargohiga 2000 so'm, eski bozor hududidagi avtoturargohga 3000 so'm, Chelak shahridagi 4-R-48 avtomobil yo'lini Chelak shahrida tashkil qilingan avtoturargohda vaqtincha saqlash 4000 so'm qilib belgilansin.*

*Har bir ko'rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to'lov tarkibiga qo'shilgan qiymati solig'i qo'shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.*

Samarqand viloyat hokimining  
2024-yil 19-fevraldagi  
46-7-0-Q/24-son qaroriga  
3-ilova

**Bozor va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish uchun to'lovlarning miqdorlari**

T/R	To'lov turi	O'lchov birligi	Olinadigan to'lovlar
<b>1</b>	<b>Maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish:</b>		
1.1.	6 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	16 000
1.2.	6 dan - 15 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	20 000
1.3.	15 dan - 30 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	22 000
<b>2</b>	<b>Qurilish materiallarini vaqtinchalik saqlash uchun</b>	1 urin/kunga	15 000
<b>3</b>	<b>Kichik o'lchamdagi qurilish materiallari (mayda o'lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lyustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv.metr gacha)</b>	1 o'rin/kunga	15 000
<b>4</b>	<b>Mahalliy (terak, qamich, somon va h.q.) va eski qurilish materiallari</b>	bir kv.metr	1 000

*Izoh: Har bir ko'rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to'lov tarkibiga qo'shilgan qiymati solig'i qo'shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinsin.*